

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Boyqo'zieva	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari	230
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologik ta'lif o'qituvchilarini metodik kompetentligini axborotlashgan ta'lif muhitida takomillashtirish	234
G.Z.Ganiyeva	
Ingliz tilidagi toponimlarni izohlashda leksikografik tamoyillar (buyuk britaniya va amerika joy nomlari lug'atlari misolida)	238
Z.K.Abidova	
Professional ta'lif muassasalarida o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatinitashkil etishda loyiha metodidan foydalanish.....	244
R.I.Madaliyev	
Talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi	248
M.X.Baybaeva, I.A.Imomov	
Talabalarning xulq atvori dagi nizoli vaziyatlarni pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmasining talqini.....	252
I.A.Imomov	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili	256
L.M.Sokolova	
Farg'ona vodiysi hunarmandlari postindustrial dunyoda	261
S.O'.Boybo'riyeva	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari.....	268
Sh.X.Xankeldiyev, D.K.Karimov	
Yosh akrobatlarning xarakat-texnik tayyorgarligi metodologiyasining kumulyativ samaradorligini o'rganish	272

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari	277

FALSAFA

Z.A.Boboyeva	
San'atning badiiy adabiyot turi uzlusiz ma'naviy tarbiyaning muhim omili.....	283
I.A.Xo'jaxonov	
Huquqiy targ'ibot jarayonida ommaviy axborot vositalarining o'rni.....	288
U.M.Mamajonov	
Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning muhim shartlari.....	293
M.B.Yuldasheva	
Biolog talabalarni kasbga yo'naltirilgan yondashuv orqali til o'qitish bo'yicha taklif	298
B.M.Qandov	
Global ekologik muammolar: shaxs dunyoqarashi va milliy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar	302
O.T.Berkinov	
Kibermakonda mavjud o'ziga xos tahdidlar	308
I.Ismoilov	
Jinoyatga jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	311
A.A.Sayitxonov	
Milliy qadriyatlar- ma'naviy tarbiyaning mafkuraviy asosi.....	316
Z.O.Muminova	
Tafakkur tarzi va jamiyat mafkuraviy tizimining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri	320
A.A.Isomiddinov	
Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari	324

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR: SHAXS DUNYOQARASHI VA MILLIY QADRIYATLARI TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ: ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ЛИЧНОГО МИРОВОЗРЕНИЯ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

GLOBAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS: CHANGES IN THE SYSTEM OF PERSONAL WORLDVIEW AND NATIONAL VALUES

Qandov Bahodir Mirzayevich¹

¹Qandov Bahodir Mirzayevich

– Chirchiq davlat pedagogika universiteti Miilliyl g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi v.b. dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada, tabiatni muhofaza qilish, uning resurslaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq ekologik qadriyatlarning shaxs dunyoqarashidagi o'mni va ularni yosh avlod ongiga singdirish masalalari yoritilgan. SHuningdek maqolada, globallashuv jarayoni barcha sohalarda bo'lgani kabi ekologik sohada ham odamlar, ularning guruhlari, ijtimoiy jamaoalar, umuman jamiyat a'zolari ongida qaror topgan qadriyatlardan tizimida ekologik dunyoqarash fenomenining o'mni va ahamiyati turilcha izohlanayotganligi tahsil qilingan.

Аннотация

В данной статье освещается роль экологических ценностей, связанных с охраной природы, рациональным использованием ее ресурсов в мировоззрении личности и вопросы усвоения их в сознании подрастающего поколения. В статье также анализируется, как в процессе глобализации во всех сферах по-разному интерпретируется в экологической сфере роль и значение феномена экологического мировоззрения в системе ценностей, сложившихся в сознании людей, их групп, социальных общностей и членов общества в целом.

Abstract

This article highlights the role of environmental values associated with the protection of nature, the rational use of its resources in the worldview of the individual and the issues of instilling them in the minds of the younger generation. The article also analyzes how, in the process of globalization in all spheres, the role and significance of the phenomenon of ecological worldview in the system of values that have developed in the minds of people, their groups, social communities and members of society as a whole are interpreted differently in the environmental sphere.

Kalit so'zlar: tabiat, globallashuv, ekologiya, dunyoqarash, qadriyat, milliy qadriyatlardan, ekologik dunyoqarash, shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy borliq, ijtimoiy ong, global muammolar, global ekologiya muammolari.

Ключевые слова: природа, глобализация, экология, мировоззрение, ценность, национальные ценности, экологическое мировоззрение, личностное мировоззрение, общественное бытие, общественное сознание, глобальные проблемы, глобальные экологические проблемы.

Key words: nature, globalization, ecology, worldview, value, national values, ecological worldview, personal worldview, social life, public consciousness, global problems, global environmental problems.

KIRISH

Jahon hamjamiyati global iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, texnologik hamkorlikning yangi bosqichiga o'tmoqda, bu dunyo ekologik manzarasini belgilovchi mezonlar va transformatsiya jarayonlarining o'zaro mushtarakligi, global muammolar mazmunini va xarakterini belgilamoqda. "Bugungi kunda tobora keskin tus olayotgan ekologik xatarlar ham barqaror taraqqiyotga jiddiy tahliddir. Jumladan: Orol muammosi global miqyosdagi ekologik va gumanitar halokatdir" [1, 310-311]. Insoniyat global muammolar girdobida yashamoqda. "Biz bugun insoniyat taraqqiyotining, ta'bir joiz bo'lsa, keskin burlishlar ro'y berayotgan tarixi bosqichida yashamoqdamiz.

Keyingi yillarda Yer yuzida keskin geosiyosi o'zgarishlar ro'y berdi, xalqaro miqyosda xavfsizlik va barqarorlik tizimi izdan chiqmoqda. Globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloz davlatlar o'rtaisdagi tafovutning o'sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka raxna solayotgan, mohiyati va ko'lamiga ko'ra transmilliy xususiyatga ega

FALSAFA

turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda” [2, 33], - deb uqtiradi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Globallashuv jarayoni barcha sohalarda bo‘lgani kabi ekologik sohada ham odamlar, ularning guruhlari, ijtimoiy jamoalari, umuman jamiyat a’zolari ongida qaror topgan qadriyatlar tizimida ekologik dunyoqarash fenomenining o’rni va ahamiyatini turlicha izohlanashga olib kelmoqda. Zero, tabiatni muhofaza qilish, uning resurslaridan oqilona foydalanish bilan bog‘liq hamda ekologiya sohasidagi inson huquqlarini himoya qilish masalalari dolzarb muammodir. Har qanday tarixiy davrda jamiyatning ma’nnaviy-ruhiy tiklanishi insonning erga va uning boyliklariga bo‘lgan munosabatini o‘z ichiga olishi lozim. Bunda ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxs ekologik sifatlarini mushtaraklashtirgan ekologik dunyoqarashini shakllantirishni kun tartibiga qo‘yish etarli emas, balki insonning tabiatni muhofaza qilish his-tuyg‘ularini tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, bu sohadagi amaliy tajribalarini chuqurlashtirish vazifalari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Mamlakatimiz hamda mintaqada inqirozli ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish muammolarini kompleks hal etish uchun: davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyatni institutlari va fuqarolarining sa‘y-harakatlarini birlashtirish va safarbar qilishni taqozo qilmoqda. Sog‘lom atrof-muhit muhofazasi davlatimiz, jamiyatimiz va har bir fuqaroning vazifasi bo‘lishi lozim. Bunday sharoitda ekologiya bilan bog‘liq milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash hamda ularni takomillashtirish xususiyatlarini o‘rganish zarurati tug‘ilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Ekologik dunyoqarash shakllanishini o‘rganishning umumfalsafiy masalalari tarixiy yozma manba «Avesto»da nisbatan sistemalashgan. Shuningdek, islom dini manbalari «Qur’oni Karim» va «Hadisi sha’rif»dagi ilohiy o‘git va aqidalar ekologik dunyoqarash tadqiqotining ma’nnaviy ildizlarini, manbalarini tashkil qiladi. Markaziy Osiyolik mashhur mutafakkirlar va davlat arboblari bu masalalarga o‘ziga xos tarzda yondashganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf xos Xojib, Ismoil Al-Buxoriy, Amur Temur, Alisher Navoiy, Zahiriiddin Muhammad Bobur, So‘fi Olloyor, Ahmad Donish va boshqalarning, keyinchalik esa jadid ma’rifatparvarlari qoldirgan boy ilmiy merosda ham bu masalalar o‘zining aksini topgan.

Ekologik muhitning inson turmush-tarzi, salomatligiga ta’siri, uning ijtimoiy oqibatlari kabi masalalar dunyo olimlaridan K.Yung, D.Feydimen, G.Freyger, I.L.Andreev, L.N.Gumilyov, L.N.Kogan, N.Moiseev, N.I.Kukova, T.A.Akimov, V.V.Xoskin, A.A.Melkumova, B.A.Afanosev, S.V.Belov va A.V.YAblokovlar tadqiqotlarida jiddiy o‘rganilgan.

Ekologik dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy omillarning roli, ekologik munosabat va ongning ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan aloqadorligi, ularning ijtimoiy-falsafiy muammolar: E.Xoshimova, Z.Abdullayev, S.Mamashokirov, H.Yu.Salomova, Yu.Shodimetov, A.Choriev, M.Eshmatov, A.Ahmedov va boshqa olimlar tomonidan ekologik borliqning inson salomatligiga, sog‘lom, jismongan baquvvat naslni tarbiyalashga, sog‘lom turmush tarzini shakllanishiga ta’sirining muayyan tomonlari tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqotlarda zamонавија globallashuv sharoitida shaxs ekologik dunyoqarashini yuksaltirish xususiyatlari, imkoniyatlari maxsus tadqiq etilmagan. Bu shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o’rni va ahamiyatini fundamental tadqiq etish borasida jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilishini talab etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jamiyat ma’nnaviy qadriyatlarini tarkibida ekologik dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlarini o‘rganishning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’nnaviy, mafkuraviy ta’limotlarga metodologik asos bo‘lish imkoniyatlari bilan izohlanadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning global ekologiya muammolarni hal etish borasida respublikamizda amalga oshirilayotgan tadbirlari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish borasidagi qaror va farmonlari, insonning ijtimoiy himoyasiga yo‘naltirilgan fikr-mulohazalari va ilmiy-nazariy xulosalari ushbu tadqiqotning normativ va nazariy asosi bo‘ldi.

Shaxs ekologik ongi, moddiy va ma’nnaviy madaniyati darajasi, uning tabiatni muhofaza qilish sohasidagi amaliy faoliyati, emotSIONAL his-tuyg‘ulari, faolligi va mas’uliyati – jamiyat real ekologik voqeligidan kelib chiqqan va uni ifodalaydigan dunyoqarash shakllarinining ma’nnaviy-madaniy asoslarini rivojlantirish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologik dunyoqarashning tarixiy genezisi jamiyat tarixining ilk bosqichlaridan boshlab hozirgacha inson ekologik dunyoqarashiga qadriyatiy munosabat ikki tipga ajratib kelingan. Birinchisi – antropogen faoliyat natijasida o'zgartirilgan moddiy borliqqa, tabiat narsa va hodisalarini biosfera ekologik muvozanati qonunlariga, inson ehtiyojlari va manfaatlariaga mos tabiiy atrof-muhit muhofazasiga qadriyat maqomidagi munosabat. Bunga shaxs va jamiyat ijtimoiy-ekologik munosabatlari doirasiga tortilgan tabiatni muhofaza qilishning texnik-texnologik, tashkiliy faoliyatlari kiradi va ular moddiy ekologik qadriyatlar sifatida e'tirof qilingan. Ikkinchisi – inson ekologik yoki antiekologik faoliyatini baholash mezonlari va usullari, vositalari majmuasini tashkil qilgan ma'naviy ekologik qadriyatlardir. Ular ijtimoiy ong shakllarining normativ-baholash funksiyasini: tasavvurlar, maqsadlar, ideallar, loyihamalar, ta'qiqlar, talablar, majburiyatlar, baholar, yo'l-yo'rqliar, ko'rsatmalar bo'lib inson ekologik faoliyatni mo'ljallarini, istiqbollarini belgilashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ekologik dunyoqarashning aksilogik funksiyasi, bir tomondan, inson faoliyatini muvofiqlashtirishi, boshqarishi bilan praksiologik ahamiyatga ega. Bunda masalaning prakseologik jihat, ekologik faoliyatdagagi qadriyatga oid bilish jarayoni uzviyigini va ularning mustahkam aloqadorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinci tomondan, ekologik dunyoqarashning gnoseologik, ruhiy-emotsional jihatlari inson amaliy faoliyatida turli ijtimoiy munosabat loyihamari, xatti-harakat dasturlarining o'zaro bog'lanish imkoniyatlarini tushunishga imkon beradi.

Bulardan tashqari, umuman dunyoqarash, xususan ekologik dunyoqarash individning tabiatni muhofaza qilishga doir ma'naviy va amaliy faoliyatini tartibga solish (regulyativ) jihatlarni o'z ichiga oladi. Bunday tartibga soluvchi jihatlar inson ongiga, hayot tarziga: afsona, din, ilmiy, falsafiy va boshqa ma'naviy qadriyatlar orqali singdiriladi.

Ekologik dunyoqarashning praksiologik va gnoseologik yo'nalishlarini uyg'unlashtirishni tartibga solishda ishonch va e'tiqod komponenti muhim rol o'ynaydi. Zero, shaxs va jamiyat ekologik faoliyati natijalariga ishonch, e'tiqod, dunyoviy bilimlar va qadriyatlarning inson dunyoqarashiga singdirilishi va mustahkamlanishi, tabiat muhofazasiga oid o'zlashtirilgan g'oyalar haqiqiyligiga imon keltirishdir.

Ekologik dunyoqarashga oid turli qarashlar va bilimlar tizimi haqiqatligiga insonning ishonchi va e'tiqodi xarakteri, uning ijtimoiy qadriyatları va ideallarini amalga oshirish harakatiga tayyorligi kabi tomonlar o'zaro muvofiqlashadi. Lekin ishonch hamma vaqt ratsional va irratsional bilimlarga asoslangan bo'lsa ham, u e'tiqodga aylanishi ham, aylanmasligi ham mumkin[3].

Ishonch va e'tiqod bilimni amaliyatga o'tkazuvchi, transformatsiya jarayonining asosiy zvenosidir. Bilim qat'iy ishonch va e'tiqodga aylanganda, u dunyoqarash elementi hisoblanadi. Shuning uchun, aksariyat hollarda dunyoqarashni inson ishonchi va e'tiqodi yig'indisi ham deyishlarida muayyan asos bor. Zero, insondagi qat'iy ishonch va e'tiqod, dunyoqarash komponenti sifatida, unga hayotda to'g'ri yo'l topishga yordam beradi, murakkab vaziyatlardan chiqishga ko'maklashadi.

Ekologik dunyoqarashning praksiologik tomoni – tabiatni muhofaza qilish sohasida shaxs va jamiyat faoliyatini tartibga solishga oid jihatlari: xatti-harakat, muloqot va ishonchni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, inson ekologik dunyoqarashi tarkibi: bilimlar, qadriyatlar, ishonch va e'tiqodning o'zaro bog'liq zvenolaridan, ularning o'zaro aloqadorligidan tashkil topadi.

Tarixdan ma'lumki, qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida amal qilgan ekologik qadriyatlar tizimi ming yillar mobaynida, deyarli o'zgarishsiz qolgan. Buning ustiga ekologik dunyoqarashlar tarkibida diniy motivlar ustuvorlik qilgan. Masalan, Qadimgi Hindiston va Xitoy falsafiy ta'limalarida qadimiy dinlarning animizm va animatizm xususiyatlari, dunyoviy dinlarda zardo'shtiylik ta'limoti ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan.

Umuman, qadimgi Sharq dunyosida tabiat hodisalarini mutlaqlashtirish, ularga sajda qilish va hodisalarini oliy qadriyat deb tan olishga muvofiq ravishda, "konservativ" ekologik dunyoqarash va ijtimoiy munosabatlari tizimi turg'un saqlanib qolgan. Natijada, ularga asoslanuvchi tabiatni antropoejen va antropotexnogen o'zgartirish jarayoni Sharqda G'arb jamiyatlaridan nisbatan orqada qolishga olib kelgan.

Sharqdan farqli ravishda antik Gretsiya, Rim, keyinroq esa Evropa uyg'onish davrida dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, dengizchilik intensiv taraqqiy etdi. Natijada bu hududlarda ekologik qadriyatlarga mos faoliyat sohalarida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, xo'jalik faoliyatining rivoji tabiat narsa va hodisalarini ilohiy deb hisoblashdan chekinishga olib keldi. Tabiat

FALSAFA

va xudolar bir-biridan ajratildi va tabiat buyumlariga merkantil-utilitar qadriyat sifatida munosabat kuchaydi va “inson – barcha narsalarning mezoni” sifatida qabul qilindi.

Bu tabiatning ahamiyatini, uning inson ehtiyojlari qondirish va manfaatiga mos kelishi nuqtai nazaridan bu qoida Rim imperiyasida ustuvor mavqega ega bo’ldi. Ekologik faoliyatda ham, bir tomonidan, utilitar qadriyatlarning hatti-harakatlar mazmunini belgilovchi omiliga aylanishi tabiatni qayta ishlovchi texnik qurilmalar, texnologiyalar rivojini ta’minladi. Ikkinci tomonidan, shaharsozlik, yo’l qurilishi, kanallar bunyod etilishi, harbiy texnika, kemasozlik jadal rivojlanishiga qaramasdan O’rta asrdagi diniy g’oyalar hukmronligi tabiatni shafqatsiz ekspluatatsiya qilinishini kamaytirdi.

Lekin kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari tabiatni yana utilitar qadriyatga aylantirishi va unga merkantil munosabatni tiklashi natijasida, tabiat kuchli antropotexnogen ta’sir bosimi ostiga tushdi. Buning hozirgi global ekologik inqirozga va ayanchli vaziyatga olib kelganini biz o’z boshimizdan kechirmoqdamiz.

Masalaning mohiyatidan kelib chiqsak, shaxs yoki jamiyatning ekologik madaniyati ham, ularning ekologik dunyoqarashi ham, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong tizimlarining o’zaro aloqadorligida shakllanishi ma’lum bo’ladi.

Yer yuzidagi hozirgi ekologik vaziyat turli madaniyatlarda tabiat muhofazasiga munosabatning qandayligini o’rganish masalasini dolzarb vazifa darajasiga ko’tardi. Umuman olganda, “madaniyat” termini dastlab yerga, moddiy narsalarga ishlov berishni anglatganligi bois, bu tushuncha mazmunida ekologik ijtimoiy faoliyat aks etishini ham esdan chiqarmasligimiz kerak.

Shu ma’noda inson va tabiat o’rtasidagi munosabatlarni garmonik tashkil etish uchun, barcha tipdagи madaniyatlar mazmunidagi ekologik qadriyatlardan unumli foydalanishni ta’lim va tarbiya tizimlarining muhim vazifasi qatoriga kirishi lozim. Bu bir tomonidan, dunyo xalqlari ekologik madaniyatları rivojiga, integratsiyasiga va dunyoqarashi transformatsiyasiga hissa qo’shsa, ikkinchi tomonidan, global va keskinlashayotgan ekologik vaziyatni yumshashiga, pirovardida uning yechimiga olib keladi.

Bu yo’nalishlarda turli madaniyatlar simbiozi (grek tilida – symbiosis – birga yashashi), sintezi, integratsiyasi natijasida, nisbatan universal umuminsoniy ekologik dunyoqarashni shakllantirish mumkin. Chunki turli-tuman yo’nalish, shakl va tipdagи madaniyatlarning tabiat muhofazasiga ijobiy yondashuv tajribalari tizimlashuvি ekologik ilmiy dunyoqarashga asos bo’ladi va qadriyat maqomiga ega. Masalan, G’arb madaniyatida ratsionallikning hissiylikka nisbatan ustuvorligini e’tirof qilishni, Sharq madaniyatida esa, ma’lum ma’noda, uning aksi – irratsionalistik munosabat mutlaqlashganligini ko’ramiz.

Vaholanki, ularning oqilona murosa va muvozanat nuqtasini topish, ham ekologik, ham umumfalsafiy jihatdan muhim nazariy-metodologik vazifa sanaladi. Shu ma’noda, ularni ekologik maqsad va ehtiyojlarga ko’ra o’zaro sintezlashtirish, integratsiyalashtirish – “tabiat-jamiyat-inson” tizimi munosabatlarini o’zaro muvofiqlashtirish imkoniyati hisoblanadi.

Umuman madaniyat tizimida ekologik madaniyat, bir tomonidan, ijtimoiy faoliyatining mahsuli, natijasi bo’lsa, ikkinchi tomondan, shaxs dunyoqarashi sifatida bu faoliyatni rivojlanishning asosidir. Ya’ni sabab va oqibat birligi namoyon bo’ladi. Lekin har bir millatning individual-mental xususiyatlari, ekologik, iqtisodiy, axloqiy, huquqiy va boshqa madaniyatlaridagi umumiyligini farqli jihatlar ekologik dunyoqarashida: ratsional va irratsional, emperik va nazariy tomonlar birligi tarzida namoyon bo’ladi[4].

Umumlashtirib aytganda, jamiyat ma’naviy qadriyatlari tizimida ekologik madaniyat va dunyoqarash maqomini ijtimoiy munosabatlar kompleksidan, ularning ratsional va irratsional, emperik va nazariy jihatlar birligidan tashqarida tasavvur qilib bo’lmaydi.

Ekologik madaniyat, tor ma’noda, insonning tabiat bilan birligini tiklashga qaytishdan iborat. Bu jarayonda, ma’naviy madaniyatning barcha sohalari katta rol o’ynaydi. Ya’ni ekologik dunyoqarash darajasi tabiatga ma’naviy-madaniy munosabat kompleksligiga va sistemaliligiga bog’liq bo’lib, jamiyat ekologik barqaror rivojlanishiga asos bo’ladi.

Har qanday jamiyatning rivojlanish darajasi va tipi, inson va tabiiy muhit o’zaro munosabatlarini uyg’unlashtirishda namoyon bo’ladi. Bu esa kishilar dunyoqarashida tabiatga nisbatan: yaxshilik, ezgulik, ijobiylik, progressivlik va shu kabi ekologik tasavvurlar ob’ektini ham tubdan o’zgartirishni taqazo etadi. Shu nuqtai nazardan “ekologik madaniyat – boshqa barcha ijtimoiy tizimlar singari dialektika qonunlari asosida rivojlanadi, unda ham yangi – progressiv va

eski – regressiv hodisalar mavjud bo'lib, ular o'tasida doimiy kurash ketadi. Demak, ekologiya yangi va eski, ijobjiy va salbiy, foydali va zararli hodisa hamda voqeliklarning muntazam almashib turish ob'ektidir”[5, 65].

Shu ma'noda, shaxs ekologik madaniyati va ekologik dunyoqarashi o'zaro nisbatida farq, tafovut va umumiylilar, quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

- ekologik madaniyat ekologik dunyoqarashga nisbatan barqaror bo'lib, tasavvurlar, qadriyatlar, urf-odat va an'analari mushtarakligi va integratsiyaga moyilligi, uning mazmunini, mohiyatini tashkil etadi;

- ekologik dunyoqarash muayyan shaxs amaliy faoliyati, bilimi, tajribasi, tabiatga munosabati tabiiy-ijtimoiy jarayonlarga hamohang rivojlanishi bois ekologik madaniyatga nisbatan dinamik o'zgaruvchandir.

Ekologik madaniyat tabiat va jamiyat munosabatlarni oqilona boshqarish uchun ekologik nazariy bilim va amaliy ko'nigmaga ega bo'lish, o'z kasbi, salohiyati doirasida ishlab chiqarishni ekologiyalashtirishga xizmat qiladi. “Eng muhim masala - aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”[1, 318].

Umuman, shaxs ekologik madaniyati va dunyoqarashidagi o'zaro nisbat, farq va tafovutlarga qaramay, bu ikki tushunchani shakllantirishda kishilar ruhiyati va jamiyatda etilgan ijtimoiy-ekologik maqsad, ehtiyoj, mas'uliyat, majburiyat belgilovchi ahamiyatga egaligini V.O.Levinskaya quyidagicha asoslaydi: “Ekologik madaniyat – bu tabiat ne'matlarini o'zlashtirishga oqilona ijodiy yondashuv bo'lib, ushbu jarayonda ekologik qadriyatlarni yaratish, taqsimlash va undan foydalanishga mas'uliyatli munosabat yuzaga keladi”[6, 11].

Darhaqiqat, bu ko'rsatkichlar tabiat, jamiyat va shaxs munosabatlarni uyg'unlashtirishning asosiy omili sifatida dolzarb ahamiyat kasb etib, kishilarda ekologik madaniyatni yuksaltirish, davlat siyosati darajasida vazifalardan biriga aylangan. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev aytganidek, “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”[2, 570].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ekologik madaniyat insonning tabiiy borliqqa sub'ektiv munosabati hisoblanib, atrof-muhitni muhofaza qilish ehtiyojini anglashida, ekologik xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf qilish imkoniyatlarini, usul-vositalarini qidirib topishda namoyon bo'ladi. Shu tarkibiy qismlarni o'zida mujassamlashtirgan insonda, ma'lum ma'noda ekologik dunyoqarash, ilmiy ekologik tafakkur, ijtimoiy ekologik faoliy va mas'uliyat, o'z-o'zini ekologik baholash va nazarat qilish kabi hislatlar shakllangan deyish mumkin. Xullas, tahlil etilgan masalalarni umumlashtirib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- ma'naviy-madaniy qadriyatlар tizimidagi ekologik dunyoqarashga daxldor tarixiy, gnesologik va ijtimoiy-amaliy manbalarni shaxs ekologik madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilishi muhim metodologik va amaliy ahamiyatga ega;

- ekologik madaniyatning ekologik dunyoqarash bilan o'zaro nisbati, farqi, o'xshashligi ilmiy-nazariy tahlili doirasida bu ikki tushunchaga ta'sir etuvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning xususiyatlari aniqlashtirilishi zarur;

- shaxs ekologik dunyoqarashi shakllanishida: ekologik idrok, tasavvur, tushuncha va tafakkur muhim sub'ektiv omillar bo'lib, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni aloqadorlik nuqtai nazaridan normativ-aksiologik tomonlarini fundamental tarzda o'rganish muhim ahamiyatga ega;

- ekologik milliy qadriyatlarning ahamiyatini kuchaytirish va maqomini mustahkamlashda madaniyatlar ekologiyalashuvi va umuminsoniy maqomga ega bo'lishi, global ekologik muammolar echimini topishda muhim sub'ektiv omil rolini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B.440.

2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.570.

FALSAFA

3. Kandov B.M. (2021). [Problems of Global Ecology and Socio-Natural Environment](#) // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – pp. 182-186.
4. Kandov B.M. Ikramov R.A. (2021). [The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization](#) /Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – pp. 33-37.
5. Maxmudova SH.L. Ekologicheskaya kultura kak faktor gumanizatsii otnosheniya obshestva k prirode. Dissert. na soисканii uchen. step. kand. filos. nauk. – Tashkent. 1994. – S. 65.
6. Levinskaya V.O. Pomyatie, struktura i funksii ekologicheskoy kulturi. Diss. uch. step. kand. filos. nauk. – Tashkent: 2000. – S.11.